## 3. JINOIY JAVOBGARLIK

Chet el fuqarolari soxta hujjatlarni ishlatishi va ularni amalga oshirganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

> ❗ *Vositachilarga murojaat qilmang - ularning hujjatlari soxta bo'lishi mumkin!*

Hujjatni bekor qilish, ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yo'li bilan jazolanadi. Soxta hujjatlardan foydalanish 80 ming rublgacha jarima yoki 6 oygacha qamash (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi УК РФ ning 327-moddasi asosida) bilan jazolanadi.

Rossiya Federatsiyasiga kirish man qilingan chet el fuqorosi chegarani kesib o'tgan holda 4 yilgacha qamoq jazosi yoki 300,000 rublgacha jarima jazosi qo'llaniladi (Jinoyat kodeksi УК РФ ning 322-moddasi).

## FOYDALI ALOQALAR:

**Qirg'izistonning Sankt-Peterburgdagi elchixonasi**
Peterburg, B.O., 7-я линия, 76-uy, 308-xona
8 (812) 332-94-87, 8 (900) 634-90-95, 8 962 688-25-06
Pochta: konsul_kr_spb@mail.ru

**Tojikiston Respublikasi Bosh konsulligi**
192007, Sankt-Peterburg, ул. Тамбовская, 10-uy, литер А
Tel: 8 (812) 490-47-46, +7 (967) 349-29-44
E-mail: tajgencons.piter@mfa.tj
Veb-sayt: *http://tajembassy.ru*

**Ukraina Bosh konsulxonasi**
191124, Sankt-Peterburg, ул. Бонч-Бруевича, 1-"v"- uy
Telefonlar: 8 (812) 331-5165, 8 (812) 331-5166, 8 (812) 331-51-69, 8 (812) 331-51-63
e-mail: secr@cons-ukr.ru, *Veb-sayt: www.cons-ukr.ru*

**O'zbekiston Bosh konsulligi**
190005, Sankt-Peterburg shahri, ул. 4-я Красноармейская, 4А
Tel. 8 (812) 601-06-28

**Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области**
Veb-sayt: *https://78.mvd.ru/ms*
191028, Sankt-Peterburg, ul. Kirochnaya, 4 litr A
tel. 8 (812) 579-47-92, 8 (812) 273-90-03

- Migratsiya nazorati tashkiloti bo'limi
  Набережная р. Фонтанки, 78-uy;
  8 (812) 314-61-91
- УВМ ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области boshqarmasining «ishonch telefoni»:
  8 (812) 573-30-02

**Прокуратура г. Санкт-Петербург**
190000, Sankt-Peterburg, , ул. Почтамтская, 2/9 uy
8 (812) 318-26-34

Davlat organlari va jamoat tashkilotlarining xatti-harakatlari yoki harakatsizligi haqida shikoyatlar uchun, veb-sahifada http://procspb.ru/reception - onlayn murojat qilishingiz mumkin

**Peterburgda Inson huquqlari bo'yicha komissari**
Inson huquqlarini poymol qilinganda
Peterburg, ул. Щербаков, 1/3, uy tel. 8 (812) 764-00-54
*http://ombudsmanspb.ru/ru/request* - onlayn murojat qilish uchun

## JAMIYAT TASHKILOTLARI

**Sankt-Peterburg jamoat kuzatuv komissiyasi (ОНК)**
(ЦВСИГ ga qo'lga olish vaqtida huquqlaringizni buzgan holda)
Veb-sayt: *onkspb.ru*
Email: mail@onkspb.ru
Kotibning telefoni: +7 (931) 352-06-35

**БФ «ПСП-фонд»** (Sankt-Peterburgdagi chet el fuqarolari va ularning oila a'zolariga maslahat berish, huquqlarni himoya qilish va muhojirlarga nisbatan kamsitishga qarshi chora ko'rish markazi)
8 (812) 337-57-85, +7 (921) 598-17-90
*www.psp-f.org*

**Красный Крест axborot va maslahat markazi** (Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarga maslahat berish)
Ул. Красный Текстильщик, 15 - uy (qabul qilish oynasi)
Telefon: 8 (800) 333-00-16
Veb-sayt: *www.spbredcross.org*

## FOYDALI AXBOROT RESURSLARI

**migrussia.ru** – «Muhojirlar va migratsiya. Mintaqaviy axborot portali»: Sankt-Peterburg va Rossiya Federatsiyasining boshqa hududlarida huquqiy yordam olish bo'yicha maslahatlar.

**МигрАзиЯ +** – muhojirlar va ularning oila a'zolari uchun mobil ilovalar – YII va MDH fuqarolari uchun (Android telefonlari uchun)

---

Буклет «Ответственность за нарушение миграционного законодательства РФ» (на узбекском языке).
Буклет разработан БФ «ПСП-фонд»
Автор-составитель: Якимов А.Н.

БФ «ПСП-ФОНД»

**PETERBURGGA XUSH KELIBSIZ!**



# ROSSIYA FEDERATSIYASI MIGRATSIYA QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

**MEHNAT MUHOJIRLARIGA YORDAM**

2018
2019

Rossiya Federatsiyasi migratsiya qonunchiligini buzgan xorijlik fuqaro javobgarlikka tortilishi mumkin.

## 1. ROSSIYA FEDERATSIYASIGA KIRISH UCHUN TAQID

Agar sizda tibbiy sug'urta polisi bo'lmasa yoki sizda muddati tugamagan sudlangallik bo'lsa, sizni Rossiya Federatsiyasiga kirgizmaslikka xaqlidirlar.

Agar sizda Rossiyada to'lanmagan to'lovlar, soliq va jarimalaringiz bo'lsa, ularni to'lamaguningizga qadar Rossiya hududiga kirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar Rossiyada 180 kun ichida 90 kundan ortiq muddat davomida hujjatsiz ishlasangiz, Rossiya Federatsiyasiga 3 yil muddatga kirishga ruxsat berilmaydi.

Agar siz 2 yoki undan ko'p ma'muriy qoidabuzarlikka tortilgan bo'lsangiz va 3 yildan buyon jarimaga tortilgan bo'lsangiz, Rossiya Federatsiyasiga kirish 3 muddatga kirishga ruxsat berilmaydi.

Agar siz 1 yoki 2 yil yoki undan ortiq muddat ichida migratsiya rejimini buzganlik uchun, ma'muriy javobgarlikka tortilasiz va sizga Rossiya Federatsiyasiga kirishga 5 yil mobaynida yo'l qo'yilmaydi.

Agar siz Rossiya Federatsiyasida qonuniy muddatidan 30 kundan ortiq yashab qolsangiz, Rossiya Federatsiyasiga kirish 3 yilga man qilinadi.

Agar Rossiya Federatsiyasida qolish muddatidan 180 kundan 270 kungacha ortiq qolgan bo'lsangiz, Rossiya Federatsiyasiga kirish 5 yilga man qilinadi.

Agar Rossiya Federatsiyasida qolish muddatidan 270 kundan ortiq qolgan bo'lsangiz, Rossiya Federatsiyasiga kirish 10 yilga man qilinadi.

Agar ilgari Rossiya Federatsiyasidan chiqarib yuborilgan yoki Rossiya Federatsiyasidan deportatsiya qilingan bo'lsangiz, chiqarib yuborilgan yoki deportatsiya qilingan kundan boshlab 5 yil mobaynida sizga RF hududiga kirishga ruxsat berilmaydi.

Agar siz deportatsiya qilingan yoki davlat mablag'lari hisobidan mamlakatdan chiqarib yuborilgan bo'lsangiz, bu harajatlarni Rossiya Federatsiyasiga to'lashingiz kerak, aks holda sizning kirishga ruxsat bermaslik muddatingiz tugagandan keyin ham, mamlakatga kirishingizga uchun yo'l qo'yilmaydi.

> **!** *Agar ilgari migratsiya jarayonida vositachilar xizmatidan foydalangan bo'lsangiz, yoki ishga kirish uchun soxta hujjat qilgan bo'lsangiz ham, sizga Rossiya Federatsiyasiga kirishga ruxsat bermasliklari mumkin.*

Siz Rossiya aviakompaniyasining vakolatxonalarida yoki ГУВМ МВД России veb-saytida kira olishingiz taqiqlanganligini yoki yo'qligini bilib olishingiz mumkin: *http://services.fms.gov.ru/info-service.htm?sid=3000*

### Kirishga ruxsat taqiqlanganini bekor qilish

Rossiyaga kirishni man qilgani to'g'risidagi qarorni, quyidagi hollarda bekor qilish mumkin:

- Gumanitar sabablarga ko'ra - kasallik tufayli, kasal qarindoshiga g'amxo'rlik qilish yoki boshqa favqulodda holatlarga ko'ra Rossiyadan qonun bilan belgilangan muddatlarda tark eta olmasligingizni isbot qila olsangiz;
- Oila birligi uchun - oila a'zolaringiz Rossiya Federatsiyasi fuqarosi bo'lsa (turmush o'rtog'ingiz, farzandlaringiz) siz ulardan ajralib keta olmaysiz;
- Migratsiya amnistiyasi doirasida - amnistiya shartlari va muddatlari Rossiya Federatsiyasi bilan sizning mamlakatingiz o'rtasida tuzilgan shartnomalar bilan belgilanadi;
- Yangi paydo bo'lgan holatlar sababidan, ya'ni qaror noto'g'ri qabul qilingan taqdirda;
- Kirishga ruxsatni taqiqlovchi qaror muddati tugaganidan keyin;
- Kirishga ruxsatni taqiqlovchi qarorning sabablari bartaraf etilsa.

Rossiya Federatsiyasiga kirishga ruxsatni taqiqlovchi qarorni-Главное управление по вопросам миграции МВД России ning Migratsiya idorasiga murojaat qilish yo'li bilan bekor qilinishingiz mumkin.

Kirish uchun ruxsat bermaslik qonunini qayta ko'rib chiqish uchun МВД ning veb-saytidagi shakldan foydalanib, elektron shaklda ariza yuborishingiz mumkin: https://mvd.rf/request_main

Arizaga kirishni man qiluvchi qarorni bekor qilishlari uchun asos bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tirkash kerak. Masalan, Rossiya Federatsiyasi fuqarosi tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi, Rossiya Federatsiyasi fuqarosi bilan nikoh guvohnomasi, kasallik guvohnomalari va boshqalar.

Kirishni taqiqlovchi qarornii qayta ko'rib chiqish uchun arizani Управление по вопросам миграции МВД РФ idorasiga topshirishingiz mumkin.

Rossiya Federatsiyasiga kirishni taqiqlash to'g'risidagi qarorni ko'rib chiqishdan bosh tortishsa, qonuniy vakil yoki advokat yordami bilan sudga shikoyat qilishingiz mumkin. Buning uchun siz, o'zingiz istiqomat qilgan hududda, МВД РФ migratsiya idorasi joylashgan joyga borib, sudga topshirishingiz kerak.

Sankt-Peterburg sudlari: *http://courts.spb.ru/*

## 2. MA'MURIY JAVOBGARLIK

Agar siz Sankt-Peterburgda bo'lsangiz:

- migratsiya (registratsiya) ro'yxatga turganingiz to'g'risida ogohlantirmasangiz;
- politsiya tomonidan to'xtatilgan vaqtida, yoningizda zarur hujjatlaringiz yo'q bo'lsa;
- migratsiya kartasida maqsadingizni noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsangiz;
- talab qilinadigan hujjatlarsiz yoki patentda ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha ishlamasangiz;
- migratsiya jarayonida ro'yxatdan o'tishda noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatgan bo'sangiz,

Sizga 5000-7000 rubl miqdorida jarima solinadi va shuningdek, Rossiya Federatsiyasidan chiqarib yuborishlari ehtimoli ham bor (Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining uchinchi qismining 18.8-moddasi, 2 qismining 18.10-moddasi, 19.27-moddasining uchinchi xatboshilari КоАП РФ).

Rossiya Federatsiyasidan УВМ ГУВД по Санкт-Петербургу и Ленинградской области bo'limiga tegishli xabarnoma berish bilan chet el fuqarosi hisobidan mamlakatdan chiqarib yuborilishi mumkin.

> **!** *Migratsiya sohasida ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazo sud tomonidan belgilanadi. Sud majlisida advokat xizmatidan foydalanish huquqiga egasiz. Talabingiz bo'yicha sizga tarjimon berishlari kerak. Sud qarorini siz tushungan tilda taqdim etishlari kerak. Siz sud qarori ustidan, qarorning yozma nusxasi olingandan keyin, 10 kun ichida shikoyat qilishingiz mumkin.*

Agar sizning shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa yoki ro'yxatdan o'tmagan bo'lsangiz, yoki yana bir marta jinoyat qilsangiz - sud sizni chet el fuqaroligi markazi ЦВСИГ ga (xorijiy fuqarolar uchun vaqtinchalik saqlash markaziga) joylashtirishi mumkin.

Agar sizni ЦВСИГ ga joylashtirishsa - hujjatlarni tezda tiklashni osonlashtirishga urinib ko'ring: agar siz xorijlik fuqaro ekanligingizni aniqlash imkoni bo'lmasa, ЦВСИГ da 2 yilgacha yashab qolishingiz mumkin. Mamlakatingizning konsulligiga murojaat qiling yoki jamoat tashkilotlaridan bepul huquqiy yordam so'rang.

**ЦВСИГ №1 ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области**
Sankt-Peterburg, Красное Село, Кингисеппское шоссе, 53А
+7 (812) 749-90-29, +7 (812) 749-90-34, +7 (812) 417-29-48
Email - suvsig-spb@mail.ru

ЦВСИГ ga joylashtirilsangiz Jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiya ОНК sizga yordam berishi mumkin. ОНК a'zolari xorijiy fuqarolarning hibsga olinish shartlarini tekshirish huquqiga ega va sizga bepul yuridik yordam berishi mumkin.

**Sankt-Peterburg jamoatchilikni kuzatuv komissiyasi**: (politsiya tomonidan ushlab turilgan va qamoqxonalarda ushlab turish paytida huquqlaringiz buzgan holda murojaat qiling)
Veb-sayt: onkspb.ru
Email: mail@onkspb.ru
POB 62, indeksi 199004
Telefon: +7 (931) 352-06-35